



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlolova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	



BOLALAR JAMOASIDA DO'STONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA RIVOJLANISH MARKAZLARIDA LOYIHA ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

U.O.'K.37.02

Quronova Ismigul Xolmurod qizi

Andijon davlat universiteti

Umumiy pedagogika kafedrası tayanch doktranti

Annotatsiya: Maqolada bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanishning amaliy ahamiyati, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish markazlarida ushbu texnologiyani qo'llash usullari batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: do'stona munosabatlar, rivojlanish markazlari, loyiha asosida o'qitish texnologiyasi.

Abstract: The article details the practical importance of project-based learning in fostering friendly relationships among children, as well as the methods for applying this technology in the development centers of preschool educational organizations.

Key words: friendly relationships, development centers, project-based learning technology.

Аннотация: В статье подробно рассматривается практическое значение проектного обучения в формировании дружеских отношений в детском коллективе, а также методика её применения в центрах развития дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: дружеские отношения, центры развития, технология проектного обучения.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari orqali bolalarning faoliyatini erkin va individual yondashuv asosida tashkil etish muhim pedagogik tamoyil hisoblanadi. Rivojlanish markazlari bolalarning erkin harakatlanishi, qiziqishlariga mos faoliyat turi bilan shug'ullanishi va mustaqil tanlov asosida bilimlarni chuqurlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu yondashuv konstruktiv-pedagogik texnologiyalarga asoslanib, kompetensiyaviy yondashuv doirasida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida bolalar faoliyati har haftalik mavzular bilan uyg'un holda tashkil etilib, rivojlanish markazlarida turli texnologiya va metodlar, interfaol mashg'ulotlar, o'yinlar, tajribalar hamda mustaqil izlanish faoliyati orqali mustahkamlanadi. Mavzuning mohiyatini bolalar ongiga chuqurroq singdirish maqsadida ular o'z qiziqishlari asosida tanlagan markazda tarbiyachi nazorati ostida faoliyat olib boradilar. Bunda tarbiyachi bolalarning faoliyatini boshqarish, ularga yo'naltiruvchi ko'rsatmalar berish va barcha markazlarga teng yondashishni ta'minlash kabi mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Ta'limiy-tarbiyaviy samaradorlikni oshirish va har bir bola rivojlanishiga kompleks yondashish maqsadida har kuni bolaning turli markazlarda faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Bu yondashuv bolani turli faoliyat turlari bilan tanishtiradi, uning taassurotlarini boyitadi va individual qiziqish doirasini kengaytiradi.

Faoliyatlarning bunday xilma-xilligi bolalarda mavjud iqtidor va qobiliyatlarni aniqlash hamda ularni maqsadli rivojlantirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, bolalarning turli markazlarda navbatma-navbat faoliyat yuritishi ularning psixologik va fiziologik holatlarini kuzatish, muammoli tomonlarini aniqlash va erta bosqichda psixokorreksion chora-tadbirlar ko'rish imkonini beradi. Rivojlanish markazlari orqali olib boriladigan birgalikdagi faoliyat bolalarda ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi. Har kuni yangi markazda yangi tengdoshlar bilan uchrashish va ular bilan hamkorlikda faoliyat olib borish majburiyati bolalarda ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishga, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu markazlar nafaqat bolalarning egallagan bilimlarini mustahkamlash, balki ularning ta'limiy, tarbiyaviy, psixologik va fiziologik jihatdan har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik muhitni shakllantiradi. Shu bilan birga, do'stona munosabatlarni shakllantirish, o'zaro hurmat, ijtimoiy hamkorlik va sog'lom muhitni yaratishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Olimlarning fikricha: "Odamlar biologik jihatdan shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan, biz tengdoshlar bilan bog'lanish va do'st orttirish instinktiga egamiz" ^[1]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insoniyat, ayniqsa bolalik davridan boshlab ijtimoiy aloqalarga ehtiyoj sezadi, do'st orttirish va tengdoshlar bilan hamkorlik qilish kabi ehtiyojlar inson tabiatining ajralmas qismidir. Shu sababli bolalar orasida do'stona munosabatlarni shakllantirish ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ta'lim tizimida, jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, bolalarning erkin fikrlashi va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda loyiha asosida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, xorijiy pedagogika ilmiy loyiha asosida o'qitish texnologiyasi dastlab Jon Dyui (J. Dewey) va Uilyam Xerd Kilpatrik (W. H. Kilpatrick) tomonidan asoslab berilgan bo'lib, bu texnologiya bola shaxsini markazga qo'ygan, faoliyatga asoslangan ta'lim modelini taklif etadi.

Piaget nazariyasiga ko'ra, loyihaga asoslangan ta'lim talabalarni ixtiro qilishga va bilim asoslarini haqiqat sifatida olish o'rniga o'rganishni kelajak bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rishga undaydigan usul hisoblanadi ^[2]. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida bu yondashuv ta'lim oluvchining mustaqil fikr yuritishi, ijtimoiylashuvi, ijodkorlik salohiyati va amaliy muammolarni hal qilishga tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan. Mahalliy tadqiqotlarga e'tibor qaratsa, O'zbekiston olimlari ham maktabgacha ta'lim jarayonida loyiha asosida o'qitish texnologiyalarining tatbiqiga oid izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan, A. Meliboevning "Maktabgacha ta'lim jarayonini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar" nomli qo'llanmasida loyiha texnologiyasining maktabgacha ta'limga tatbiq etilish mexanizmlari, bosqichlari va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Muallif bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni hamkorlikka o'rgatish va muammoni yechishga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etish kabi jihatlarga urg'u beradi. Bundan tashqari, Axrorjon Y. L. o'z maqolalarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali mashg'ulot o'tkazishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining, xususan loyiha uslubining roli va pedagogik afzalliklarini yoritadi. Uning ta'kidlashicha, loyiha asosida ta'lim tashkil etilishi bolalarning ijtimoiy moslashuviga, o'z fikrini erkin ifoda eta olishiga va shaxsiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, loyiha asosida o'qitish texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarda amaliy faoliyat, ijodkorlik, jamoada ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, bu texnologiyani maktabgacha ta'lim amaliyotiga keng joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala bo'lib qolmoqda. Ilmiy maqola yozishda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo'llanildi:

- **teoretik tahlil** – loyiha asosida o'qitish texnologiyasining nazariy asoslari, ularning maktabgacha ta'limdagi o'rni va imkoniyatlarini aniqlash uchun pedagogik-psixologik adabiyotlar, ilg'or tajribalar, milliy va xorijiy olimlarning ishlari o'rganildi (Dyui, Kilpatrik, Meliboev, Axrorjon Y. L. va boshqalar);
- **empirik usullar** – loyiha texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida tatbiq qilish jarayonini kuzatish, diagnostika qilish va natijalarni baholash uchun quyidagi metodlar qo'llanildi: pedagogik kuzatuv (loyiha darslari davomida bolalarning faolligi, ishtiroki, ijodkorligi tahlil qilindi), tarbiyachilar bilan so'rovnomalar va suhbatlar o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya bolalarning mustaqil faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy tajriba orttirish, hamkorlik asosida maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish, shuningdek, shaxsiy javobgarlik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyiha texnologiyasini turli rivojlanish markazlari bilan integratsiyalashgan holda qo'llash, ayniqsa, ijtimoiy-emotsional va axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, fan va tabiat markazida bolalar o'rtasida hamda bog'cha jamoasiga nisbatan do'stona munosabat, mehr-oqibat va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish maqsadida tabiiy muhitda mehnat faoliyatlarini tashkil etish amaliy jihatdan o'z samarasini beradi.



Misol sifatida, har yili bahor faslida guruh bolalari uchun bog'cha hududidan ajratilgan yer maydonida turli sabzavot, gullar va o'simliklarni ekish bo'yicha loyiha tashkil etilishi mumkin. Ushbu loyiha asosida bolalar o'z qo'llari bilan o'simliklarni ekish, parvarishlash, kuzatish va hosilni yig'ish kabi jarayonlarda faol ishtirok etadilar. Bu faoliyat ularning nafaqat aqliy va jismoniy, balki ijtimoiy-emotsional va axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Loyiha boshlanishida tarbiyachi bolalarda qiziqish va ishtiyoq uyg'otish maqsadida quyidagicha motivatsion murojaat bilan chiqadi: "Biz birgalikda yangi loyiha ustida ishlaymiz. Kelinglar, bog'chamiz jamoasini o'z mehnatimiz mahsuli bilan quvontiraylik. Birgalikda bizga ajratilgan yerga o'z takliflaringiz asosida sabzavotlar, turfa gullar ekamiz, ularni parvarishlaymiz va hosilni boshqalar bilan baham ko'ramiz. Bu bizning do'stligimiz va birdamligimiz timsoliga aylanadi." Mazkur loyiha texnologiyasi asosida fan va tabiat markazida bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda olib boriladigan faoliyatlar va ularning kutilayotgan natijalarini quyidagi jadval shaklida ifodalash mumkin.

1-jadval

Bosqich	Amalga oshiriladigan faoliyat	Faoliyat shakli va mazmuni	Shakllanuvchi ko'nikmalar	Kutilayotgan natijalar
1-bosqich: Loyiha e'loni va motivatsiya	Tarbiyachi tomonidan loyiha mazmunini tushuntirish: "Do'stligimiz va birdamligimiz timsoli!"	Suhbat, ruhiy tayyorgarlik, jamoaviy rejalashtirish	Tashabbus, guruhga tegishlilik hissi, emotsional tayyorgarlik	Bolalarda loyiha mazmuniga qiziqish, birdamlik ruhining shakllanishi
2-bosqich: Guruhlarga bo'linish va yer maydonini tanlash	Har bir guruhga yer ajratiladi, bolalar o'z maydoni bilan ishlaydi tanlash	Guruhli tashkil etilgan ijodiy faoliyat	Jamoaviy qaror qabul qilish, o'ziga va boshqalarga mas'uliyat	Har bir guruh o'z maydoni uchun mas'uliyatni his qiladi
3-bosqich: Ekin tanlash va rejalashtirish	"Nimani eksak yaxshi bo'ladi?" – guruhda maslahatlashuv	Erkin fikr almashish, qaror qabul qilish, rasm tanlash orqali rejalashtirish	O'z fikrini ifodalash, kelishish madaniyati, kelajakni tasavvur qilish	Bolalarda mustaqil tanlov qilish, bir-birining fikriga hurmat paydo bo'ladi
4-bosqich: Ekin ekish va parvarish	Bolalar o'z qo'llari bilan sabzavot/gullar ekadi va doimiy parvarish qiladi	Amaliy faoliyat, mehnat davomida ertak, maqol, topishmoqlar oytish va mavzuni takrorlash, jamoaviy harakat	Sabrlilik, jamoada ishlash, reja asosida harakat qilish	Nutq faolligi, ijtimoiy intellekt, shaxsiy fikr, Mehnat orqali do'stlik, o'zaro yordam, mehr-shavqat shakllanadi
5-bosqich: Suv quyish, begona o'tlardan tozalash	Navbat bilan g'amxo'rlik qilish (kunlik jadval tuziladi)	Javobgarlikni bo'lishish, navbatga rioya qilish	Intizom, ijtimoiy tartib, o'zaro muomala	Bolalarda o'z mehnatini qadrlash, boshqalarga ishonchli sherik bo'lish hissi kuchayadi
6-bosqich: Hosilni yig'ish va almashish	Har bir guruh hosilini boshqa guruhlar bilan bo'lishadi va ustozlariga ulashadi.	Mehr-oqibatli almashuv, sovg'a berish madaniyati	Qo'li ochiqlik, saxiylik, o'z mehnatini baham ko'rish	Bolalarda ijobiy ijtimoiy emotsiyalar, quvonch, ijtimoiy mas'uliyat. o'ziga ishonch shakllanadi
7-bosqich: Yakuniy tahlil va baholash	Loyiha natijalarini ko'rib chiqish, "Eng do'stona guruh"ni aniqlash	"Nima yoqdi?", "Kim yordam berdi?", "Nima qiyin bo'ldi?", "Kimga rahmat aytmochisiz?" kabi savollar orqali tahlil qilish	Refleksiya, his-tuyg'ularni tushunish va ifodalash	Bolalar ijobiy xotiralar orqali do'stlikni qadrlashni o'rganadi

Mazkur texnologiyani fan va tabiat markazida amalga oshirish davomida har bir hududning sharoiti va real imkoniyatlaridan kelib chiqib, bolalar hamda tarbiyachi-pedagoglar turli xil o'simliklar yoki xona gullarini yetishtirishni loyiha maqsadi sifatida belgilashlari mumkin. Bu yondashuv bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirish, bir-birini qo'llab-quvvatlash va mas'uliyatni bo'lishish kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga, tabiiy muhitga nisbatan ijobiy munosabat, mehnatsevarlik, parvarish qilish ko'nikmalarini hosil qiladi. Shuningdek, bu faoliyat maktabgacha ta'lim tashkilotining geografik joylashuvi, iqlimiy sharoiti, moddiy-texnik bazasi va mavjud resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish jarayonida biz yuqorida fan va tabiat markazidagi yondashuvlarni ko'rib chiqdik. Endilikda esa qurish-konstruksiyalash va matematika, syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish, til va nutq hamda san'at markazlarida ushbu texnologiyaning samarali qo'llanilish yo'llarini tahlil qilamiz. "Ilk qadam" o'quv dasturining sentabr oyi to'rtinchi haftasidagi mavzu – "Men va mening do'stlarim" deb nomlanadi. Ushbu mavzu mohiyatini tarbiyachi o'zining kasbiy mahoratiga tayangan holda, turli innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanib, bolalarga sodda va tushunarli tarzda hafta davomida ochib berishi lozim.

Biz loyiha asosida o'qitish texnologiyasi yordamida bolalarda mavzuning mohiyatini chuqur anglash uchun markazlar kesimida bolalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha quyidagi yondashuvni taklif etamiz. Tarbiyachi, avvalo, mavzu mazmuni va loyiha maqsadi bilan tanishtiradi. Loyihaning nomi "Do'stlik kodlari: Bizning qalb shahrimiz" deb ataladi. Tarbiyachining bolalarga murojaati quyidagicha bo'ladi: "Hafta davomida biz guruhimizda mehr, yordam, e'tirof, kechirim, quvonchni bo'lishish kabi do'stlik kodlari asosida bunyod etilgan "Qalb shahrimiz"ni yaratamiz". Mazkur loyiha orqali bolalar qurish-konstruksiyalash va matematika, syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish, til va nutq, san'at markazlarini integratsiya qilgan holda "qalb shahri"ni tashkil etuvchi ijtimoiy rollarni bajaradilar. Har bir markaz shaharning ma'naviy, madaniy va aqliy qurilish blokiga aylanadi. Loyiha davomida bolalar "do'stlik kodlari"ni aniqlaydilar – bular do'stlikni ochuvchi, bolalar o'zaro munosabatini ifodalovchi tushunchaviy belgilar (hurmat, yordam, e'tirof, kechirim, quvonchni bo'lishish kabi). Ushbu kodlar uchun tarbiyachi va bolalar hamkorlikda o'rtacha o'lchamdagi oq rangdagi kalit shaklida ramziy belgilar yaratadilar va hafta davomida markazlardagi faoliyatlari natijalarini ular ustiga do'stlik kodlarini ifodalovchi rang-barang tasvirlar bilan bezaklar tayyorlaydilar.

Tarbiyachi ushbu mavzuni tanlash sababi haqida bolalar bilan quyidagicha savol-javob tarzida suhbat o'tkazishi mumkin:

- Bolalar, shaharlarimizda nimalar mavjud?
- Uylar, odamlar, hayvonlar, o'simliklar.
- Shaharlarimiz gullab-yashnashi uchun odamlar nima qiladi?
- Bir-birlariga yordam beradi, gullar va daraxtlarga g'amxo'rlik qiladi va boshqalar.
- Agar insonlar bir-birlarini tushunishni xohlamasa, qalbida mehr-oqibat bo'lmasa, shahar gullab-yashnaydi-mi?
- Yo'q, albatta.

Shundan kelib chiqib, tarbiyachi ta'kidlaydi: "Inson qalbida o'zining kichik shaharchasi bor. Agar bu qalb shaharchada mehr-oqibat, hurmat, rahmdillik, kechirimlilik kabi qadriyatlar mavjud bo'lsa, shahrimiz gullab-yashnaydi. Aks holda, qalb shaharchamizda qo'pollik, xasadgo'ylik, qahr-g'azab va hurmatsizlik hukm sursa, shahrimiz tanazzulga yuz tutadi. Shu bois, insonlar bir-birlari bilan do'stona, ahil-inoq munosabatda yashashi uchun o'zlarining "Qalb shahri kalitlari"ni topib, qalbini ochib, bir-birlariga xursandchilik ulashishi zarur. Shu sababli biz hafta davomida o'z qalb shahri kalitlarimizni izlab topamiz va ularni birga bezatamiz". Ushbu jarayon hafta oxirigacha davom etadi va bolalar turli markazlarda olib boriladigan faoliyat jarayonida "qalb shahri kalitlari" deb tasavvur etilgan turli "do'stlik kodlari"ni o'z qobiliyatlarini ishga solgan holda markazlarga hamohang tarzda, rollar, she'rlar, hikoyalar, turli rasm va qurish-yasash mashg'ulotlari orqali ifodalab beradi.

Har bir markazga "do'stlik kodlari"ni aks ettiruvchi stikerlar qo'yiladi, bolalar faoliyati ham ushbu stikerlarga moslangan holda tashkil etiladi. Avvaldan tayyorlab qo'yilgan oq rangdagi kalitlarni "do'stlik kodlari" bilan va qo'shimcha tarzda o'zlarining kreativligi asosida bezatadilar va hafta oxirida guruhlar o'z kalitlarini tahlil qilib beradilar. Rang-barang kalitlar uchun alohida stol ajratiladi va kalitlar terib qo'yiladi. Bolalar o'rtasida turli tortishuvlar yuzaga kelganda ularni yarashtirish va bir-biriga mehr uyg'otish maqsadida ushbu kalitlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalarda ijtimoiy motivatsiyani kuchaytirish va ijobiy mustahkamlash maqsadida bolalarni rag'batlantirish pedagogik jihatdan ahamiyatlidir. Tarbiyachi-pedagog faoliyatni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan barcha materiallarni markazlarga joylashtiradi (masalan, til va nutq markaziga mehr, yordam, e'tirof, kechirim, quvonchni bo'lishish kabilar aks ettirilgan rasmlar, syujetli-rolli o'yinlar markaziga yuqoridagi "do'stlik kodlari"ni bildirib turuvchi niqob, haykal, qo'g'irchoqlar va boshqalar). Markazlardagi faoliyatlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.



2-jadval

Kun	Do'stlik kodi	Markazlar	Faoliyat tavsifi
1-kun	mehr	Til va nutq + san'at + qurish-konstruksiyalash va matematika	"Mehr nima?" - bolalar bilan suhbat. Mehr haqida rasmga qarab hikoya, maqollar aytish, bolalar o'zlarining hayotida ro'y bergan mehrga to'la voqealarni so'zlab berishi; "Mehrlil yuz"ni chizish, rang berish va qirg'ish; Plastilin yoki loydan "Mehrlil yuz"ni yasash;
2-kun	yordam	Syujetli-rolli o'yinlar + qurish, konstruksiyalash va matematika + san'at	"Sholg'om"ertagini sahnalashtirish va bolalar o'zlari mustaqil ravishda rollarni taqsimlash; "Sholg'om" ertagi qahramonlarini yasash; "Sholg'om" ertagi qahramonlari rasmini chizish;
3-kun	e'tirof	Til va nutq + qurish, konstruksiyalash va matematika + san'at	"Men do'stimni maqtagim keladi" – bolalar bir-birining ijobiy fazilatlarini aytadi; Guruh a'zolari bir-biriga nisbatan iliq munosabat bildirish maqsadida mustaqil ravishda o'z xohishlariga ko'ra ijodiy ish (rasm, buyum yoki boshqa shakllar) tayyorlaydilar. Ushbu ishlar do'stlariga ularning ijobiy sifatleri (masalan, mehribonlik, do'stona munosabat, ishonch, yordam berish) asosida tantanali tarzda taqdim etiladi; Bolalar yulduzcha shaklidagi "medal" namunalarini chizib, bo'yab va kesib tayyorlaydilar. Keyin ular bu medalni guruhdoshlardan biriga muayyan vaziyatda (masalan, yordam bergani, biror yaxshi ish qilgani yoki mehribonligi uchun) e'tirof tariqasida topshiradilar.
4-kun	kechirim	Til va nutq + Syujetli-rolli o'yinlar + San'at	Rasmga qarab hikoya tuzish, tahlil qilish va bolalarning mustaqil fikrlarini so'rash; "Urishdik – tushundik – yarashdik" mavzusi bo'yicha ertak sahnalashtirish; Ikki bola yarashgan jarayon va xursand yuz qiyofasini chizish;
5-kun	quvonchni bo'lishish	Barcha markazlar	"Qalb shahri" ochilishi bo'lib o'tadi, guruhlar tomonidan yasalgan kalitlar taqdim etiladi, kamchiliklar tarbiyachi tomonidan to'ldiriladi, yanada qiziqarli yakun topishi uchun ommaviy raqs uyushtiriladi.

XULOSA

Loyiha asosida o'qitish texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash nafaqat vaqt jihatidan izchillikni, balki tarbiyachilardan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik va ijodkorlikni, bolalardan esa mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik hamda faol ishtirokni talab etadi. Mazkur texnologiyaning qo'llanishi orqali tarbiyalanuvchilar muayyan faoliyat yo'nalishi doirasida uzluksiz harakat olib boradilar, bu esa ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi va bosqichma-bosqich avtomatik refleksga aylanishiga olib keladi. Loyiha jarayonida bolalar o'z faoliyatlarini faqat individual yo'nalishda emas, balki guruhda – jamoaviy muloqot va hamkorlik asosida amalga oshiradilar. Natijada bolalarning shaxsiy "men"lik hissi asta-sekinlik bilan "biz"lik qarashlarga yo'naltiriladi, bu esa ijtimoiy yo'naltirilgan jamoaviy ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda, barqaror, intellektual va ijtimoiy faol jamiyat aynan "biz"lik g'oyasi asosida shakllanadi. Maktabgacha yosh davrida bu kabi jamoaviy tuyg'ularni qaror toptirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalar jamoasida do'stona, samimiy va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish har bir tarixiy bosqichda dolzarb bo'lib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.researchgate.net/publication/345624890_Friendships_in_children's_communities
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Project-based_learning
3. Markham, T. (2011). Loyihaga asoslangan ta'lim. Kutubxonachi-o'qituvchi, 39(2), 38-42.
4. Mirzayeva, D. Sh. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. – 147 b.
5. Nishonova, Z., Alimova, G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
6. Norbosheva, Mehri. Bolalar psixologiyasi. Ma'ruza matnlari. – Toshkent, 2002. – 89 b.
7. Sodiqova, Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2013. – 288 b.
8. Qadriyatlar falsafasi moduli dasturi (o'quv-uslubiy majmua). f.f.d. B. Talapov. – Namangan, 2023. – 216 b.
9. Hasanboyeva, O. U. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun qo'llanma. 3-nashr. – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2012. – 186 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.